



Date: 09 June 2026

## IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR BILAN YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH

Respublika imkoniyati cheklangan  
shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan  
maxsus texnikumi  
ishlab chiqarish ta'limi ustasi  
Gaibnazarova Muqaddas Olimovna

Davlatimiz tomonidan imkoniyati cheklangan yoshlarimizni va iqtidorlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan ekan, ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'quvchi qizlarni jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi uchun ongli va ixtiyoriy kasb- hunar tanlashiga ko'maklashish bugungi kun talablaridan biridir. Zero, bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning harakatlar strategiyasini rivojlantirishga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisdagi ma'ruzalari va boshqa qator ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlarida bu haqda gapirib o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo 'naltirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni alohida ta'kidladilar.

Davlatimiz tomonidan imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarga ko'rsatilayotgan ishonch va e'tiborni nazarda tutgan holda,umumiy o'rta ta'lim maktablaridan o'quvchi-yoshlarni kasb -hunarga yo'naltirish ishlarida alohida e'tibor qaratmog'imiz zarur. Jumladan, ularga dastlabki kasb-hunarlar haqida ma'lumotlar berish, maktab hududida yaqin joylashgan sexlar,hunarmandchilik ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirish, ularning mehnati, shart-sharoitlari,ish ustublari,mehnat qurollari bilan tanishtirish orqali kasb tanlashga bo 'lgan qiziqishlarni oshirish bugungi kun talablaridan biridir. O'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasb-hunarga yo'naltirish va ular orqali bo'ladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar,davra suhbatlari, bahs-munazaralar, so'rovnomalar, psixologik treninglar, korreksiyon mashg'ulotlar, shuning bilan birga, xalq hunarmandlari, tadbirkorlar bilan uchrashvlar bilan uchrashuvlar tashkil etish va uni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, maktab va kasb hunar texnikumlarda faoliyat yuritayotgan to'garaklar faoliyatini, mehnat ta'limi dasturlari hamda sog'lig'ini saqlash bo'limlari, yoshlar ijtimoiy harakati,mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, barkamol avlod markazlari vakillari bilan hamkorlikda ular orasidagi bo'ladigan muammolarni bartaraf etish ishlarini takomillashtirish zarur. Chunki, maktablarda



sust, o'z ijodlari bilan viloyat, Respublika bosqichlarida ishtirok etayotgan o'quvchi-qizlar barmoq bilan sanarli. Ushbu maqsadda, yuqorida zikr etilgan tashkilot vakillari bilan hamkorlikdagi ishlarni kuchaytirish orqali turli yo'nalishlar bo'yicha ijod tashkilot vakillari bilan hamkorlikdagi ishlarni kuchaytirish orqali turli yo'nalishlar bo'yicha ijod qilayotgan o'quvchi-qizlar ijodni rivojlantirish ishlari dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, o'quvchi-yoshlarni nafaqat ilm olishga, balki kelajakda ularning butun hayoti davomida asqotadigan kasb-hunar egallashlariga ham alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz kerak. Jumladan, xalqimizda shunday ajoyib naql bor: "Hunarli inson-xor bo'lmas!", darhaqiqat, bu maqol zamirida olam-olam ma'no bor, chunki qaysi bir hunarli insonlarga razm solmaylik, hunarlari orqasidan obro'- e'tibor qozonib, hattoki chet elliklarda ham qiziqish uyg'otmoqda.

Zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni munosib kasb-hunar tanlash va kelajakda jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishi uchun maktablarda o'z kasbining mohir ustalari bo'lgan, el-yurt orasida obro'- e'tibor qozongan hunarmand va tadbirkor ayollar bilan uchrashuvlar o'tkazish, ular ijodlari bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etish zarur.

Imkoniyatlar cheklangan o'quvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda eng avvalo berilayotgan ta'lim tarbiya tizimiga e'tibor berish lozim. Abu Rayxon Beruniy bilim berish haqida "Ta'lim tarbiya jarayonida uzviylik va izchillik asosida tushunarli qilib bilim berish, ilmlarni uchun o'quvchida qiziqish uyg'otish, uni harakatga undash lozim", deb ta'kidlaydi. Buyuk mutaffakir Abu Ali Ibn Sino esa imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish va kasbga o'rgatishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarurligini ta'kidlaydi: "Bolaga bilim berishda faqat kitobga band qilib qo'ymaslik, yengildan murakkabga o'tish orqali bilim berish, mashqlarning bola imkoniyatiga mos bo'lishi, jamoa bo'lib o'qishga e'tibor berish, o'quvchining qiziqish mayillari va qobiliyatini hisobga olish lozimligini aytib o'tgan"

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish va ularning muammolarini o'z vaqtida ijobiy hal etish ishlab chiqarish ta'limi ustalari alohida o'rin tutadi. Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida ko'rsatma beradi: Nogiron bolalar bilan muomalada ehtiyot bo'lib, bosiq va e'tiborli bo'lish, ularga bilim berishda va kasbga o'rgatishda turli usul va shakllardan foydalanilsin, ularning xotirasi, bilimli egallashi, shaxsiy xususiyatini bilish, kasbga qiziqtirish, berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish, toshiriqlarni ularning aqliy darajasiga va imkoniyatiga mos ravishda berish lozimligi haqida ta'kidlab o'tadi. Buyuk olimlarimiz ta'limotidan kelib chiqib, ta'lim tarbiya berishda va



kasbga o'rgatishda ularni zeriktirmaslik, bilim berishda bir xillikdan qochish, mavzularni uzviy va izchil asoslab, qiziqarli tarzda bayon qilish maqsadga muvofiq.

Shunday ekan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim tarbiya orqali kasbiy madaniyatini shakllantirishda ular orasidagi bo'ladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha o'qituvchi ma'naviyati va madaniyati, mahorati, bundan tashqari ota-onalarning ma'suliyati ahamiyati hisoblanadi. O'qituvchining umuminsoniy madaniyat va pedagogik mahorati u orqali ta'lim berish jarayonida o'z o'quvchisida shakllanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining umumiy madaniyati unung ijtimoiy ahamiyati harakterlarining kasbiy faoliyati amalga oshgan rivojlanganlik yetakligini ifodalaydi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda kasbiy mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchining mustaqil ravishda yuqori sifat va ish unumini ta'minlovchi ish usullarini tanlay olishi, ishlab chiqarishdagi turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'z-o'zini nazorat qila bilish va boshqarish shakllantirib borish muhimdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirishda ular orasidagi bo'ladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha esa o'quvchining mehnat faoliyatini rejalashtira olishi, mehnatda eng maqbul usullar va texnologiyalarni qo'llay olishi, mehnatni muhofazalash qoidalariga rioya qilish qobiliyatini, hamda, mehnat jarayoni, vositalarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga ijodiy yondashish, shu bilan birga ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish muhimdir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning rivojlanishi, ularning ruhiy kuch va faoliyatining amaliy faoliyatida amalga oshirish darajasi bilan belgilanadi. O'quvchilarning kasbiy madaniy rivojlanishi-bu ularning bilimi, ishonch, qobiliyati va xulqining rivojlanish jarayonidir.

Yuqorida ko'rsatish o'tilgan jihatlar o'quvchilarning ular orasidagi muammolarni bartaraf etishda kasbiy madaniyatining shakllanishiga asos bo'ladi va ularning kelajakda kasbiy faoliyat doirasida bilimli, o'z ishining mohiyatini tushunadigan, tizimli yondasha oladigan va kasbiy madaniyatli bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi yoshlarimiz uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan ekan, bu imkoniyatlardan o'z vaqtida foydalangan holda ular orasidagi bo'ladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ko'maklashish maqsadida texnikumlarda faoliyat yuritayotgan to'garak ishlari, hamda, o'quvchilar ijodiyot markazlari bilan hamkorlikdagi ishlarni takomillashtirish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar



Date: 09 June 2026

1. Sayfullayeva D, Jalolova D. Tikuv buyumlarini buyurtma asosida ishlab chiqarish va ta'mirlash texnologiyasi.
2. Sayfullayeva D. Maxsus fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish va faollashtirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

